



ERAZM ROTTERDAMSKIY FALSAFASIDA TINCHLIK QONUNIYATLARI

Sharipov Dilshod Baxshilloyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: dilshodsharipov70007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Uyg'onish davri”ning mashhur vakili Erasm Rotterdamskiy hayoti va faoliyati, falsafasidagi tinchlik, uni ta'min etuvchi omillar, tinchlik yaxshiliklarning manbasi bo'lishi haqidagi faylasuf fikrlari, uni ta'minlovchi qonuniyatlar, xususan, insonlar o'rtasidagi o'zaro muhabbat, insoniylik, do'stlik, inoqlik, hamjihatlik, er-xotinlik munosabatlari kabi axloqiy qonuniyatlar birma-bir sharhlanadi.

Kalit so'zlar: inson, aql, sezgi, nutq, izchillik, o'zaro aloqadorlik, muhabbat, rahmdillik, er-xotinlik, hamjihatlik, ittifoq, do'stlik, birlashish, davlat, xavfsizlik, abadiy tinchlik.

Аннотация: В данной статье представлены жизнь и творчество известного представителя «Возрождения» Эразма Роттердамского, мир в его философии, факторы, его обеспечивающие, мысли философа о мире как источнике благ, законах, обеспечивающих его, в частности, одно за другим разъясняются моральные законы прав человека, такие как взаимная любовь, человечность, дружба, доброта, гармония, супружеские отношения.

Ключевые слова: человек, разум, интуиция, речь, связность, взаимосвязанность, любовь, сострадание, брак, гармония, союз, дружба, союз, состояние, безопасность, вечный мир.

Annotation: In this article, the famous representative of the "Renaissance" Erasm Rotterdamsky's life and work, peace in his philosophy, the factors that ensure it, the philosopher's thoughts about peace as a source of good things, the laws that ensure it, in particular, human rights moral laws such as mutual love, humanity, friendship, kindness, harmony, marital relations are explained one by one.

Key words: human, mind, intuition, speech, coherence, interconnectedness, love, compassion, marriage, harmony, union, friendship, union, state, security, eternal peace.

“Uyg'onish davri” tinchlik g'oyasini universallashtirdi va tarixda ilk bora (nisbatan) sekulyar tinchlik g'oyasi paydo bo'la boshladi. To'g'ri, diniy manbalarga murojaat qilishlar, shu davr faylasuflari va ma'rifatparvarlari uchun albatta, tabiiydir. Lekin yer yuzidagi barcha xalqlar, xususan, xristian dinidan boshqa din vakillari tinchligi haqida ilk bora shu davrdan boshlab – umumjahon tinchlik haqida so'z bora boshladi. Bu XX asr va hozirgi XXI asrdagi barcha tinchlik jarayonlari, tinchlik haqidagi tadqiqotlarning falsafiy-ijtimoiy, metodologik asoslari aynan “Uyg'onish davri”da qo'yilganiga hujjat-dalildir. Shu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlardan biri Erasm Rotterdamskiydir.





Erazm Rotterdamskiy 1446 yil 28 oktyabrdan Burgundlar Niderlandiyasida tug'ilgan. Ota-onasi unga Gergard (ya'ni "Orzu qilingan") deb nomlashadi, o'sha davr lotinlashtirilishi va adabiy taxallusda *Desiderius Erasmus* shakliga o'tib ketadi, asl ismi esa unitiladi. 1536 yilda Shveysariya Ittifoqining Bazel shahrida vafot etgan. 1506 yilda ilohiyot (teologiya) doktori ilmiy darajasini olgan. Lotin tilida gumanizm yo'nalishida ijod qilgan. Asosiy qiziqishlari yo'nalishlari xristian falsafasi va renessans masalalari bo'lган. Uning falsafasiga *Epikurizm, Mark Tulliy Sitseron, Piko della Mirandola, Jovanni* asarlari ta'siri bo'lган[1]. Bu golland faylasufi, ilohiyotchisi, yozuvchisini "gumanistlar hukmdori" ("insonparvarlar hukmdori") deb atashgan. "Shimoliy Uyg'onish" davrining yirik vakilidir. "Yangi Ahd"ni yunon/lotin originalini nashrga tayyorladi va bu muqaddas bitiklarning ilk dunyoviy tanqidiy o'rghanishga asos soldi. Antik davr adabiy merosidan madaniy foydalanishga qaytishga hissa qo'shdi. U asosan lotin tilida yozgan. Erazm Rotterdamskiy o'zining erkinlikni sevuvchi qarashlari bilan butun Evropa shuhratini qozondi, reformatsiyani qabul qilmadi va umrining oxirida u *Lyuter* bilan iroda erkinligi ta'limoti haqida keskin bahslashdi, ko'pchilik protestantlar esa bunga shubha qilishdi.

Boshlang'ich ta'limni mahalliy maktabda oladi, undan so'ng Deventerga ko'chib o'tadi va "jamoaviy birodarlik" maktabida o'qiydi. Bu maktab esa qadimgi mumtoz mualliflarni o'rghanish dasturlarini ham qamrab olgan bo'ladi. 13 yoshida ota-onasidan ayrıldi va boquvchisini yo'qtgach monastirga o'tib ketadi. U erda 5 yil qolib ketadi. Asosan bu erda qadimgi yunon mualliflari asarlarini lotin tilida o'qiydi. Tez orada ajoyib bilim, ajoyib aql va nafis lotin tili nutqini o'zlashtirishining g'ayrioddiy san'ati bilan nufuzli homiy larning e'tiborini tortadi. Kembray episkopi Erazmni o'ziga lotin tilida yozishmalar bo'yicha kotib qilib oladi. Bunday homiy tufayli Erazm monastrni tark etib, haliyam sxolastik ta'lim markazi bo'lган Parijga ko'chib o'tishadi.

Erazm Parijda o'zining ilk yirik asarini «*Adagia*» - qadimgi yunon mualliflari asarlaridan olingan latifalar, so'zlarni jamlaydi. Bu asari uni butun Evropa gumanistik doiralariga mashhur qildi. Bir necha yildan so'ng Erazm Fransiyadan Angliyaga sayohat qiladi, uni bu erda mashhur insonparvar(gumanist) sifatida samimiy





mehmondo'stlik va ehtirom bilan kutib olishadi. Erazm Angliyada ko'pgina gumanistlar bilan do'stlashadi, xususan, "Utopiya" asari muallifi *Tomas Mor, Jon Kolet*, keyinchalik *Jon Fisher* va bo'lajak Angliya qiroli (Genrix VIII) bo'lgan *shahzoda Genrixlar* bilan do'stlashadi. 1499 yilda Angliyadan qaytadi va bir muddat "ko'chmarchi" hayat tarzini kechiradi – Parij, Orlean, Lyoven, Rotterdamda bo'ladi. 1505-1506 yillarda Erazm Angliyaga yangi sayohat uyuşdırıldı ve şunu orqali u azaldan borishni niyat qilgan Italiyaga boradi. Italiyada Erazmni ehtirom va kezi kelsa, jo'shqin kayfiyatda kutib olishdi. *Turin universiteti unga ilohiyot bo'yicha doktorlik diplomini topshirdi.* Rim papasi esa, o'zining alohida oq fotihasi sifatida Erazm yashagan yoki yashab turishga majbur bo'lgan joylarining turmush tarzi va kiyinish madaniyati bo'yicha yurishga izn beradi. Erazm Italiyadagi 2 yillik sayohati davomida Turin, Bolonye, Venetsiya, Padue, Rim shaharlarida bo'ldi va undan so'ng yana Angliyaga yaqinda taxtga sazovor bo'lgan do'sti Genrix VIII va boshqalar oldiga qaytadi. Sayohatlari davrida, o'zining ta'kidlashicha, Erazm "**Ahmoqlikning maqtovi**" deb atalgan mashhur asarini yozadi. Oksford va Kembrij universitetlari Erazmga professorlik taklif qilishadi[1].

Erazm Kembrijda to'xtashga qaror qiladi, chunki u erda eski qadrdon do'sti episkop *Fisher* kansler(rektor) edi. Bu erda Erazm o'sha davr uchun noyob mutaxassis sifatida bir necha yil lotin tilidan dasr beradi, shuningdek, ilohiyotdan ham "Yangi Ahd"ning haqiqiy matni asosida saboq beradi. Bu o'sha davr uchun katta yangilik bo'lgan. Chunki o'sha davrda o'rta asrlar sxolastik metodi rivojlangan bo'lib, barcha ilohiyot fanlarini *Duns Skot, Foma Akvinskiy* va bir necha boshqa o'sha davr "sevimli" mualliflari asarlari asosida o'rganilgan. Erazm "**Ahmoqlikning maqtovi**" asarida shu davr sxolastik ilohiyotshunosligi xarakteristikasiga bir necha sahifa ajratadi. Unda Erazm Rotterdamskiyning quyidagi tanqidi o'z davri ilohiyot fani uchun nihoyatda o'tkir so'z bo'lgan: "Ular o'zlarining "mazali" (deb o'ylangan) bema'ni gaplariga shu qadar berilib ketishganki, ular bilan kunu tun vaqt o'tkazgan bo'lsam hamki, ular Injil yoki havoriy Pavlusning maktublarini hech bo'lmasa bir marotiba varaqlash uchun bir daqiqa ham vaqt topishmaydi. Biroq o'zlarining ilmiy behuda gaplari bilan shug'ullanishlari bilan umumbashariy cherkov ularning sillogizmlariga, shu bilan birga osmon – Atlas elkalariga tushishiga va ularsiz cherkov





bir daqqa ham davom etmasligiga(mavjud bo‘lmasligiga – D.B.Sharipov) aminlar”, deb ta’kidlaydi.

1511 yilda Erazm Rotterdamskiyga Kembrij ilohiyot professori unvoni taqdim etiladi. 1513 yilda Angliyaning noqulay va nosog‘lom muhiti sababli Erazm Germaniyaga boradi va bu erda 2 yil davomida butun Germaniyani aylanib chiqadi. Germaniyada Erazm Rotterdamskiy *Ulrix Saziy* bilan tanishadi. 1515 yilda esa yana Angliyaga qaytib boradi.

1516 yilda Erazm yana kontinental Evropaga qaytadi, bu safar abadiy qaytadi. Ispaniya qiroli Karl, keyinchalik Muqaddas Rim imperiyasi imperatori bo‘lgan Karl V Erazmnini “qirollik maslahatchisi” lavozimiga taklif qiladi.

Karl V Erazm Rotterdamskiyga 421 frolin haq to‘lab, real hech qanday vazifalarsiz, hattoki, saroyga kelmaslik sharti bilan uni qirollik maslahatchisi etib tayinlaydi. Bu Erazmga o‘zini butunlay ilm-fanga bag‘ishlashga va moddiy ta’mnotni o‘ylamaslikka asos bo‘ldi. Erazm Bryussel, Luven, Antperven, Frayburg, Bazel shaharlarida ham bo‘ldi. Oxirgisida, keyinchalik muqim qolib, 1536 yil 12 iyul kun tunida Erazm Rotterdamskiy vafot etadi.

Erazm Rotterdamskiy yuqorida eslatilganlardan tashqari yana quyidagi asarlarini yozgan:

- “Maqollar”;
- “Ahmoqlikning maqtovi”;
- “Oson suhbatlar”;
- “Xristian hukmdorining tarbiyasi”;
- “Hamma yoqdan quvilgan va yakson qilingan Tinchlik shikoyati”;
- “Diatribe yoki erkin iroda haqida suhbat”;
- “Bolalar odob-axloqi to‘g‘risida”[1].

Erazm Rotterdamskiy falsafasi o‘zbek kitobxonlariga unchalar ma’lum emas. Chunki asarlari o‘zbek tiliga o‘girilmagan va o‘ylashimizcha, faylasuflar asarlari o‘zbekchaga o‘girish orqali (qadimdan hozirgi kunning mashhur faylasuflarigacha) tinchlikparvar yoki insonparvarlar asarlarining alohida analogiyasini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu bilan yoshlarimizning ilmiy salohiyatini ilk manba



tarjimasi orqali yuksaltirgan va shu bilan ilmiy jamoatchilikka yaxshi va bir umrlik qo'llanmalarni taqdim etgan bo'lardik, deb hisoblaymiz. Shu ishlardan keyingina qiyosiy (ilmiy) ishlarni bajarish mumkin bo'ladi. Bu metodologik masala, mag'z va sof ilmiy masaladir. Shundan keyingina u yoki bu faylasuf, olim falsafasi, ilmiy dunyoqarashidagi u yoki bu paradigma, yoki qonuniyat, deb gapirishimizga asos bo'ladi. Paradigma esa keng ma'nodagi falsafiy qonuniyatdir, yoki jumla qonuniyatlar boshi, metodologik mag'zidir.

Tinchlik haqidagi yangi so'z “Uyg'onish davri”da aytildi. Tinchlikning yangicha tarannumini *Erazm Rotterdamskiy* boshlab berdi. “Ahmoqlik maqtovi” asarida harbiy kasb-korning ancha kamchiliklari oolib tashlandi. Erazm Rotterdamskiy *Antonius fon Bergenga* yozgan maktubida o'zining ko'p sonlik sayyohatlari asosida urushlarning yomon oqibatlari haqida gapirgandi. Keyinchalik muallif, xat matnini kengaytirib, 1515 yilda “Urush, uni boshidan o'tkazmaganga yoqimli” nomli uncha katta bo'limgan asar yozdi. Shunday qilib, E.Rotterdamskiy o'zining urushga qarshi asari – “*Hamma yoqdan quvilgan va yakson qilingan Tinchlik shikoyati*”(1517)ga manba to'pladi. Asar “Tinchlik shikoyati” nomi bilan mashhur bo'lib, tinchlikning insoniyatga murojaati, monologi (xuddi bir shaxs yoki insonning murojaati) tarzida bitilgan. Tinchlik odamlar va Xudolar tomonidan sharaflangan, (hammaning) otasi, boquvchisi, barcha yaxshiliklarning manbasi bo'lishi bilan birga uni mensimasliklari haqida xuddiki jafokash zot singari hasrat qiladi. Urush esa hurmatda ko'rilib, tabiatga xilof bo'lib, barcha yomonliklar va uqubatlar sababidir. Urush dunyoviy jarohat sifatida vijdon va e'tiqodni emiradi. Bu erda Erazm Rotterdamskiy urush keltiradigan barcha zararlarni va tinchlik keltiradigan barcha yaxshiliklarni sanab o'tadi. U o'z qo'li ostidagi xizmatkorlarni, taqvodorlarning qonini to'kuvchi hukmfarmonlarni va urushga oq fotiha o'quvchi duixonlarni xristian dini da'vatlari bilan la'natlaydi.

Erazm Rotterdamskiy asari tinchlik o'rnatuvchilarni ulug'lagan: “Barcha ulug'ehtirom urushni barham beruvchilarga bo'lsinki, ular o'z dono qarorlari bilan hamjihatlikni tiklaydilar va nihoyat, ular barcha kuchlarini, imkoniyatlarini ishga solib shunday qilishadiki, yirik armiyalar va quroq-aslahalar zaxirasi kerak bo'lmay qoladi”[2.s.9.]





Erazm Rotterdamskiy falsafasida “Abadiy tinchlik” tabiatda mavjud bo‘lgan *izchillik, o‘zaro aloqadorlik, hamjihatlik* orqali mavjudligi ta’kidlangan: “O‘zaro kurashadigan tabiiy hodisalar *abadiy tinchlikni* bir-birini tenglashtirish va shunday qarama-qarshilikda izchillik va o‘zaro aloqadorlik, hamjihatlik orqali ta’minlashadi” [2.s.30.]. Bu erda, Erazm Rotterdamskiy, tirik jonzotlar aqldan mahrum bo‘lsa-da o‘ziga o‘xshaganlar orasida tinch yashayotganini, fillar, qo‘ylar to‘da-to‘da bo‘lib yashashi, turnalar va zog‘lar to‘da bo‘lib uchishi, muhabbat va fidoyilik namunasini ko‘rsatib, laylaklar jam bo‘lishini, delfinlarning bir-biriga yordam berishini va hattoki, chumolilar va arilarning inoqligi haqida yozadi. U aqli savolni qo‘yadi: “Suhbatni davom ettirish joizmiki, modomiki, (ular, ya’ni joni bor turlar – D.B.Sharipov) aqldan mosuvo, lekin haytovur *sezgidan mahrum emas* ?”. Ushbuda daraxtlar va o‘simpliklar *inoqligi* haqida ham so‘z boradi. O‘simpliklar o‘rtasidagi erkaklik va ayollik bog‘liklari, tok novdasining qayrag‘ochga tirmashib o‘sishi, yoki tok novdasining shaftolini yaxshi ko‘rishi kabi fikrlari ham borki, bu bilan muallif o‘simpliklar, daraxtlar sezgidan xoli bo‘lsa -da, “*tinchlik muruvvatini his qilishadi*”, deb ta’kidlaydi. “Va agar hayot vujud va qalb birligi tarzida bo‘lsa, unda sog‘liq tananing barcha uyg‘unligini aks ettiradi. Aqldan mahrum tirik mavjudotlar o‘ziga o‘xshaganlar orasida yashaydi”. “...Faqtgina insonga *aql kuchi* berilgan – hamma insonlar uchun bir xil – lekin hayvonlar (aqldan – D.B.Sharipov) mahrumdir. Faqtgina bu aqli yaratmaga *nutq* ato etilgan, ayniqsa, *yaqin do‘stlik aloqalarini yaratish uchun*” [2.s.30.].

E.Rotterdamskiy inson tabiati tinchlikka moyilligi, faqtgina munkirlargina (dindan qaytganlar) ilk marta va hozir ham hamjihatlikni buzib osmonda ham, (yerda) insonlar orasida ham bir-birlari bilan ittifoq tuzishib va yakdillik bilan o‘zlarining tiraniya hokimiyatini o‘rnatishadi, deydi.

E.Rotterdamskiy falsafasida inson, insoniylik, inson tabiati yaxshi o‘rganilganki, inson uchun tabiatda “birdamlik uchun sabablar ko‘pdir” [2.s.31.].

Insonlar o‘rtasidagi *o‘zaro muhabbat* esa alohida etikaga oid kategoriya sifatida qaralgan: “Shuning uchun ham *o‘zaro muhabbatni qo‘llab-quvvatlashni xalqda insoniylik deyishadi* va “insoniylik” so‘zining o‘zi tabiatga oid sifatlar bo‘lmay, *inson tabiatiga mos bo‘lgan axloqqa oid(tushunchadir)*”.





E.Rotterdamskiy tabiat insonga ato etgan ne'matlardan biri *do'stlik* ekanligini, *hamjihatlikni* u bilangina tiklash mumkinligini yozgandi. “Tabiatda *birdamlik* uchun qanchalar ko‘p bahonalar bor”, deb hayratga tushadi. E.Rotterdamskiyning inson nega aynan *tinch* va o‘zaro *hamjihatlik*, *do'stlik* va *birodarlik*, *muhabbat* va *inoqlikda* yashashi kerak, degan savolga quyidagicha javobi o‘rinli, deb o‘ylaymiz: “***Tabiat*** (insondan – D.B.Sharipov) *boshqa jonzotlarni himoyalanish imkoniyatini berish uchun qurollantirdi*, va *faqat insonni qurolsiz va ojiz qilib yaratdi* – **uning xavfsizligi ittifog va yaqin do'stlikdadir.** *Ehtiyoj davlatni yuzaga keltirdi va ugina odamlarni birlashtirishga o'rgatdi*, chunki umumiy harakatlar bilan yovvoyi hayvonlar va qaroqchilarni daf qila oladilar. Insonlar jamiyatida o‘z holicha etarli bo‘lgan hech narsa yo‘q” [2.s.31-32.]

E.Rotterdamskiy “tabiat... insonni qurolsiz va ojiz qilib yaratti” degan xulosasini sharhlagagan. Ehtimoldan xoli emaski, u insonni tabiatdagi boshqa hayvonlar, jonzotlar bilan qiyoslash natijasida o‘sha hukmni aytganki, darhaqiqat, inson bolasi tanasida, o‘zida biror bir himoya quroli yo‘q va hayoti davomida o‘smanydi, yoki paydo bo‘lmaydi – inson genida na shox boshidan yoki tumshug‘idan, xuddi buyvol yoki qobon kabi, va na zirx va baquvvat tirnoq, xuddi barcha zirxlilar yoki o‘tkir tirnoqlilar (sherxon, yo‘lbars, silovsin kabilar) mavjud. Shu sababli ham E.Rotterdamskiy qadimgi yunonlar “*aistlar muhabbati*” deb atagan fenomen – *muhabbat* va *rahmdillik* insonni, inson zotini asrab qolganini ta’kidlaydi. Bunga sabab sifatida esa *er-xotinlik hamjihatligini* ko‘rsatadi[2.s.32.]

Umuman olganda, E.Rotterdamskiyning “...*Tinchlik shikoyati*” nomli lotin tilida o‘z davrining faqatgina ziylolar qatlami uchungina mo‘ljallangan va muallifni, ehtimoldan xoli emaski, aynan shu tildaligi uchun repressiyadan asrab qolgan asari tinchlik haqidagi *ajoyib bir essey* deb ta’riflash mumkin. Asar maroq bilan o‘qiladi, juda ham ko‘p falsafiy, ijtimoiy, siyosiy echimlarga boy hamdir.

Lekin E.Rotterdamskiy falsafasida tinchlik bo‘yicha aniq bir dastur taqdim etilmagan. Muallif o‘z davrining qudratli bo‘lgan tiraniya davlatlari(hukmdorlari yoki ularning ayonlari)ga etib borganida qanchaga tushishini bilgan. Xalq Erazm asarlaridan bebahra qolgan – chunki lotin tilini olimlar, yuristlar, ruhoniylargina tushungan.





Alber Dyurer E.Rotterdamskiyning urushni tanqid qilgan pozitsiyasi ta'sirida qon to'kilishiga qarshi gravyuralar ishlagan. *Tomas Mor* "Utopiya" asarida E.Rotterdamskiyning urushga qarshi asarlarini yuqori baholab, alohida mavzu sifatida o'rgangan. *Agripp Netteygeymskiy*, *Xuan Luis Viveslar* Erazm Rotterdamskiy tarafdarlari bo'lishgan. Yurtimizda hali o'zbek tilida Erazm Rotterdamskiyning to'liq asarlar yig'ma jildi nashr yuzini ko'rgan emas.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati:

1. Erazm Rotterdamskiy — Vikipediya (wikipedia.org); Bolshaya sovetskaya ensiklopediya: [v 30 t.] / pod red. A. M. Proxorov — 3-e izd. — M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1969;
2. <http://webdept.fiu.edu/~mirandas/bios1535.htm#Erasmus>; <http://www.biografischportaal.nl/persoon/29366356>;
3. Erazm Rotterdamskiy//Elokvensiya — M. : Sovetskaya ensiklopediya, 1957. — S. 140—141. — (Bolshaya sovetskaya ensiklopediya : [v 51 t.] / gl. red. B. A. Vvedenskiy ; 1949—1958, t. 49; bse.sci-lib.com/article126909.html
4. Kodjaspirova G. M. Iстория образовани и педагогической мысли: таблицы, схемы, ортные конспекты. — М., 2003. — S.48; Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar/Pod red B. M. Bim-Bada. — M.,2003. — S.428.
5. Traktaty o vechnom mire. Sostaviteli: I.S.Andreeva, A.V.Gulyiga. Sank-Peterburg. ALETEYYA. 2003. Erazm Rotterdamskiy. Jaloba mira, otovsyudu izgnannogo i poverjennogo.1517. s. 29-59.
6. Пружинин Б. И. Наука как профессия и как феномен культуры// Вопросы философии. 2019, – № 8. – С. 5
7. Менделеев Д. И. Заветные мысли: полное издание. – М.: “Мысль”, 1995. – С. 411.
8. Mamasaliev M. M. Philosophical and Moral Aspects of Amir Temur's Foreign Policy //Miasto Przyszłości. – 2023. – T. 35. – C. 210-215.
9. Мамасалиев М. АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАР //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных





наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 170-175.

10. Чориев, С.А., Рустамов, Р.Р. ДУНЁ ТАРФИБОТ СИСТЕМАСИ ЭВОЛЮЦИЯСИ // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dunyo-tar-ibot-sistemasi-evolyutsiyasi> (дата обращения: 22.01.2024).

11. Рустамов Р. Р., Тураева С. Х. Виды пропаганды, ее цели и задачи // Вестник науки. – 2020. – Т. 5. – №. 11. – С. 58-62.

12. Рўзибоев, Дилшод Аъзам Ўғли XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ // ORIENSS. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchiyarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchiyarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).

13. Ruziboev Dilshod A'Zam Ugli TOURISM POWER OF UZBEKISTAN // ORIENSS. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tourism-power-of-uzbekistan> (дата обращения: 09.12.2022).

14. Norqulovich J. B. Globallashuv Davrida Migratsion Inqiroz // Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 41. – С. 107-109.

15. Jalilov B. N. SOG'LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 276-282.

16. Буриев, И. И., & Мамасалиев, М. М. (2020). ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. Вестник науки и образования, (22-2 (100)).

17. Бўриев И.И. ЎРТА ОСИЁДА СЎНГИ УЙГОНИШ ДАВРИ ВА ФАРБ РЕНЕССАНСИ // Вестник науки. 2020. №11 (32). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rta-osiyoda-s-ngi-uy-onish-davri-va-arb-renessansi> (дата обращения: 24.01.2024).

